Биография

Hamid Ne’matov



O‘zbek tilshunosligida hamda ona tili ta’limi borasida katta o‘zgarishlar o‘zbeк lisonshunosligida o‘z maktabini yarata olgan olim, yoshlarning ardoqli murabbiyi, shogirdlari kamolini o‘zining baxti, iqboli deb bilgan ustoz, kamtarin va fidoyi inson, filologiya fanlari doktori, professor, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, O‘zbekiston maorifi a’lochisi NE’MATOV HAMID G‘ULOMOVICH nomi bilan ham bog‘liqdir.

Ne’matov Hamid G‘ulomovich 1941-yil 22-noyabrda Buxoro shahridagi Modarixon guzarida o‘z davrining ma’rifatli kishisi G‘ulomqodir Ne’matulloboy oilasida tug‘ildi.

O‘rta maktabni Buxoroda tugatib, universitet, aspirantura va doktorantura ta’limini 1961-1976-yillarda Leningrad davlat universiteti va Sharqshunoslik institutida mashhur turkiyshunoslar akademik Andrey Nikolayevich Kononov va professor Sergey Nikolayevich Ivanovlardan oldi.

1970-yilda “Qoshg‘ariy “Devon”i materiallari asosida fe’l morfologiyasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1978-yilda “XI-XII asr sharqiy turkcha morfologiyasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1950-yillardan keyin milliy tillar qurilishi talqinini rus tili grammatikasi bilan aynanlashtirish – fanga xilof va tadqiq manbayini noto‘g‘ri talqin qilish sifatida–fan olamida asta-sekin qoralana boshlandi. O‘zbek tilshunosligida bunday harakatning peshqadamlaridan biri 1951-1953-yillarda BuxDUda avval o‘qituvchi, keyinchalik o‘quv ishlari prorektori, ilmiy ishlar prorektori lavozimlarida ishlagan, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi va madaniyat xodimi” faxriy unvonlariga sazovor bo‘lgan zakovatli tilshunos olim, shoir va iste’dodli (“Qutadg‘-u bilig”ni va Mir Alisher Navoiy asarlarini, jumladan, “Lison-ut tayr”ni asliyatdan rus tiliga o‘girgan) tarjimon, professor Sergey Nikolayevich Ivanov (1922-1999) edi.

Биография



Professor S.N.Ivanovning yetti tilni o‘z ona tilidek biladigan iqtidorli shogirdi H.G‘.Ne’matov respublikamiz tilshunosligi va ona (o‘zbek) tili ta’limi yangilanishining yalovbardorlaridan bo‘ldi.

Hamid Ne’matov 1982-yildan 2004-yilgacha Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasining mudiri lavozimida ishladi. 2004-2009-yillarda shu kafedra professori sifatida faoliyat ko‘rsatdi. 2009-yildan 2015-yilgacha Buxoro viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti professori bo‘lib ishladi.

O‘tgan davr mobaynida daqiq olim H.G‘.Ne’matov va uning izdoshlari o‘zbek tilshunosligini bundan qariyb 30 yil oldin “Ma’rifat”ning “Talab, ehtiyoj va imkoniyat” maqolasida qo‘yilgan cho‘qqilarga ko‘tardi, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta’lim tizimi muassasalarini substansial grammatik talqin asoslarida yaratilgan, yangi maqsadlarni ko‘zlaydigan dastur-u darslik, qo‘llanmalar bilan ta’minlay oldi.

Iftixor bilan qayd etish mumkinki, S.N.Ivanov boshlab bergan, uning izdoshi H.G‘.Ne’matov amaliy tatbiqini ta’minlagan o‘zbek substansial tilshunosligining yutuqlari “ichki bozor”ning zamonaviy ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanib qolmadi–xorijga ham yuz tutdi. Jumladan, o‘zbek germanistlari Nofiza Vohidovaning nemis, Jamila Jumaboyevaning ingliz tili leksikasiga o‘zbek substansial tilshunosligi yutug‘i bo‘lgan graduonimiya (darajalanish: iliq, issiq, qaynoq; pichirlamoq, shivirlamoq, shipshimoq, demoq, gapirmoq, ovozini ko‘tarmoq, dodlamoq, hayqirmoq kabi) hodisasini olib kirdi.

Bevosita H.G‘.Ne’matov nomi bilan bog‘liq bunday yutuqlar bisyor…

Ne’matov Hamid G‘ulomovich 40dan ortiq darslik, dastur, o‘quv qo‘llanma, metodik tavsiyalar kabi alohida nashrlarning, 250dan ortiq ilmiy maqolalarning muallifi va 100dan ortiq ilmiy-metodik ishlarning muharriri hamda taqrizchisidir.

Биография



Xalqimizning jonfido jadid farzandlari Fitrat, Elbek, Qaym Ramazon, Botu, Behbudiylar tamal toshini qo‘ygan o‘zbek tilshunosligi tadqiqini munosib davom ettira olgan olim ilmiy faoliyati davomida 40dan ortiq fan nomzodi va beshta fan doktori tayyorladi. Ular Buxoro, Toshkent, Qarshi, Andijon, Farg‘ona, Samarqand shahar va viloyatlaridagi oliy ta’lim o‘choqlarida samarali faoliyat yuritmoqdalar. Bugungi o‘zbek tilshunosligining zabardast vakillari bo‘lgan professorlar – Ravshanxo‘ja Rasulov, Baxtiyor Mengliyev, Ra’no Sayfullayeva, Laylo Raupova, Rohatoy Safarova, Mehriniso Abuzalova, Muhabbat Qurbonova, Shohida Shahobiddinova, Shukurjon Akramov, Odiljon Bozorov, Ilhomjon Madrahimov, Yoqub Saidov; dotsentlar – Saida Nazarova, Shahlo Hamroyeva, Nilufar Shirinova, Bayramali Qilichev, To‘lqin Asadov, Guli Toirova, Lola Ne’matova, Gulnoz Ne’matovalar (bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin) ustoz Hamid Ne’matov tilshunoslik maktabining peshqadam davomchilaridir.

Olim rahbarlik qilgan ilmiy ishlar – o‘zbek substansial tilshunosligi hamda uning asosida ona tili ta’limini yangilashga qaratilgan va bu sohada katta ilmiy-amaliy yutuqlarga erishilgan. Respublikamizda o‘zbek tili bo‘yicha maktab dasturlari ham, oliy filologik ta’lim dastur va qo‘llanmalari ham shu mazmun hamda yo‘nalishda amaliyotda ekanligi, o‘zbek substansial tilshunosligining g‘arbda ham e’tirof etilishi, Yevropa faniga o‘z ta’sirini o‘tkazayotganligi H.G‘.Ne’matovning ilmiy rahbar sifatida faoliyati ko‘zgusidir.

Daqiq olimning samarali mehnatlari hukumatimiz tomonidan ham munosib taqdirlangan. Jumladan, ustoz 1996-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni, 2010-yilda “El-yurt hurmati” ordeni, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining faxriy yorliq va diplomlari bilan taqdirlangan.

Filologiya fanlari doktori, professor, lison ilmining darg‘asi, sermahsul ilmiy faoliyati bilan o‘z nomini mangulikka muhrlagan olim Ne’matov Hamid G‘ulomovich 2016-yilning 28-aprelida 75 yoshda yorug‘ olamni tark etdi...

Agar dunyoda ilm bo‘lmaganda, insoniyat umr yo‘lini ilm nuri bilan yoritmaganda, bu yorug‘ olamda kishilar faqat qorin g‘ami bilan kun o‘tkazgan, zulmat va nodonlik ko‘chasida qolib ketgan bo‘lardi. Inson ma’naviy olamining beqiyos quvvat manbayi, Yaratmishning betakror tajallisi ekanligining isboti, uning qalbini yoritguchi cheksiz nur ilm va ma’rifatdir. Insoniyatning qadr-qimmati ilm bilan hosil bo‘ladi. Haqiqiy ilm odamzodga zarar keltirmaydi. Ilmni qunt bilan o‘rganish, uni egallash, ilmni izlash, topish, xulosalar chiqarish, o‘rni kelganda boshqalarga o‘rgatish oliy san’at namunasi, desak, adashmaymiz.

O‘zbek tilshunosligi ilmining zabardast vakili, tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne’matov nomi yurtimizda, lison ilmida ona-Buxoroning butun shuuriga ilm shu’lasi tushgan asl farzandlaridan biri sifatida yashab qolaveradi.